

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Filologiya fakulteti dekani, p.f.n.,
dots. Abdullayev K._____

«___» _____ 2018 y.

5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (Nemis tili)

Ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Valijonova Muhayyo

“Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar”
mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

BMI rahbari:_____

Nemis va fransuz tillari kafedrasi mudiri

f.f.n dotsent S.Saydaliyev

_____ **Z.Tursunov**

«___» _____ 2018 й.

Namangan-2018

CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

KIRISH

ASOSIY QISM

1-BOB. CHET TIL O'QITISH METODIKASIDAGI ZAMONAVIY METODLAR

- 1.1. Kommunikativ didaktika metodi
- 1.2. Madaniyatlararo muloqotni o'rgatish metodi
- 1.3. Mashqni tashkil qilish metodi

2-BOB. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

- 2.1. Chet til o'qitish metodikasida ta'lim texnologiyalari va ularning mohiyati
- 2.2. Chet til o'qitish jaroyonida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar va ularning turlari
- 2.3. Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish istiqbollari

3-BOB. OLMON TILI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

- 3.1. Olmon tili darslarida zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish
- 3.2. Olmon tili o'qitishda keys stadi texnologiyasidan foydalanish
- 3.3. Olmon tili o'qitishda klaster texnologiyasidan foydalanish

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar

Ma'lumki, chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz - O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. Chet tillarini o'rganish uchun yoshlarga, qolaversa barcha yurtdoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar o'zining ijobiy natijasini isbotlab bermoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nafaqat chet tillari misolida, balki ilm dunyosining barcha jabhalarida jiddiy o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunday ulkan bunyodkorlik ishlarining boshida yurtboshimizning ko'rsatgan jonbozliklari, yoshlarga bo'lgan e'tibor, kelajakga ishonch tuyg'usi yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997-yil 29-avgustda) qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda, muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida"gi 1875-sonli PQ qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir.

Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Jahon ilm fanining zamonaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish, davr talabidir. Bunga esa faqatgina chet tillarini mukammal bilish, tilga oid barcha qonun-qoidalarini egallash zarur. Shu maqsadda chet tillarini o'rganishning yanada samarali yo'llarini izlash, turli xildagi o'qitish metodlarini yaratish olimlarimiz, izlanuvchi o'qituvchi va bilimli yoshlarimiz oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimiga chet tillarini o'rgatish bo'yicha xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish va chet tillarining Umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha yangi davlat

ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 2013-yil 8-maydagi qarori asosida xorijiy tillar fani uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish borasida bir qator ko'rsatmalar belgilab qo'yilgan.

Jahon amaliyotida talabala-yoshlarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini (layoqatlilik) rivojlantirishda chet tillardagi nutq kompetensiyasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir innovatsion faoliyatni modernizatsiyalash, og'zaki nutqqa differensial yondashgan holda va nutq odobi kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vosita va darsliklar yaratish, ta'lim berishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish alohida ahamiyatga molikdir. Bu o'z navbatida, talabala-yoshlarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishning asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar tufayli navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, komillikka yetishishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilgan. Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqorolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning hozirgi zamon tizimlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ijobiy hislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va natijaviy amalga oshiriladi. Darhaqiqat, dars-mashg'ulotlarining muvaffaqiyatli tashkil etishning 80% i ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi qarori, 2012- yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashirish chora-

tadbirlari tog'risida"gi 1875-sonli PQ qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu bitiruv malakaviy tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi tog'risida so'z ochishdan avval, "zamonaviy ta'lim" tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy–ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaralganda buyuk ajdodlarimiz, allomayu mutafakkirlarning asrlar davomida yaratgan boy ma'naviy merosi yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati bugungi kunda ham o'z ta'sirini yo'qotgani yo'q. Shu o'rinda 1- Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi iboralari yodimga tushdi. "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq". Demak, o'qituvchi-pedagogning muhim vazifalardan biri bu yosh avlodga yetarli bilim va tarbiya berishdir. O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani tog'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini tog'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotlarga ajratilgan vaqt ichida ularni tog'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun esa, o'quv-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash va ularni amalda natijaviy qo'llash amaliyoti turadi. Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Respublikamizning barcha ilm dargohlari: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan yoshlarni zamonaviy, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan quurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammoli xususiyatlardan biri

sifatida o'quvchilarning bilimini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish va amaliy bilish faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. O'quvchi o'z fikrni erkin bayon etishi, mavzuni guruh yoki jamoa ichida erkin yoritib berishida esa bu kabi pedagogik texnologiyalarning o'rni katta ahamiyatga egadir. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi bugungi kunda muallim, metodist va olimlar oldida turgan va yechimini kutayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. O'quvchilarga, talabaiyoshlarga til o'rgatishda yangi, zamonaviy pedtexnologiyalarni yaratish, ularni amalda qo'llash, tatbiq etish hozirgi kunda eng muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Avvalambor, chet tili va uning metodikasini o'qitishning maqsadlari jamiyatimiz va davlat manfaatlari talablariga mos kelishi va javob berishi lozim. Bitiruv malakaviy ishining vazifasi sifatida ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar belgilab olindi:

- Chet til ta'limi jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida chet el va vatanimizning bir qator olimlari nazariy fikrlari, metodlari va tavsiyalarini tanqidiy o'rganish va ishimiz uchun xulosalar chiqarish;
- Pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasida materiallarni tanlash va taqsimlanishi kerak bo'lgan materiallarni to'liq va batafsil o'rganib chiqish;
- Chet til o'qitish metodikasini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish imkoniyatlarini o'rganish;
- Ta'lim jarayonida pedtexnologiyalarni qo'llash, tadqiqot natijalarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliy ishlab chiqish va ularni nemis tilini o'rgatish jarayoniga tatbiq etish;
- Chet til o'rgatish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish borasida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Ushbu "Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy pedtexnologiyalar" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib chet

til o'rganish va o'rgatish jarayonida foydalaniladigan zamonaviy pedtexnologiyalar xizmat qiladi.

Tadqiqot predmeti. Olmon tili o'rgatish jarayonida foydalaniladigan zamonaviy pedagogik metodlar tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlarida ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim tizimini qaytadan isloh etib, jahon ta'lim tizimi darajasiga yetkazish, uning dolzarb muammolarini ilmiy tahlil qilish tog'risidagi ijtimoiy-falsafiy fikr-mulohazalari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va 2017-yilning 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tog'risida"gi qarori bitiruv malakaviy ishimiz uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bitiruv malakaviy ishi material sifatida o'zbek va chet el tilshunos, metodist, psixolog, pedagog olimlarning ishlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism (3-bob va 9-paragrif), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 58-betni tashkil etadi.

I-Bob: CHET TIL O'QITISH METODIKASIDAGI ZAMONAVIY METODLAR deb nomlangan. Ushbu bobda, chet til o'qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so'z boradi.

II-Bob: ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR deb atalib, bu bobda pedagogik texnologiya tushunchasining mohiyati, kelib chiqishi, hozirgi zamon ta'lim tizimidagi pedagogik texnologiya turlari haqida, olimlarning turli fikr-mulohazalari, prezidentimizning shu mavzu to'g'risidagi qaror va ijrolar, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va ulardan foydalanish misollar bilan izohlab berilgan.

III-Bob: OLMON TILI O'QITISHDA PEDTEXNOLOGIYALARNING O'RNI deb nomlangan. Bu bobda nemis tili metodikasida, nemis tili o'qitishda

metodlardan umumli foydalanish, keys stadi va klaster metodlaridan olmon tilida foydalanish, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarasi, natijalari to'g'risida, yangi metodlarni dars jarayonida qo'llash usullari to'g'risida so'z boradi.

1. BOB. Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion- inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. “Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurrakib, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi.

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til

hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi (Jololov, 2012).

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir. Shu sababli chet til o'rganish va kelgusida uni boshqalarga o'rgatish uchun bel bog'lagan inson chet til o'qitish metodikasi fani predmetini yaqindan anglashi darkor.

Metodikaning predmeti- chet til predmeti orqali ta'lim- tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi (Jololov, 2012).

Metodikaning asosiy tushunchalari- metod, usul, prinsip. Didaktika- nimaning o'rgatamiz? o'qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika- qanday o'rgatamiz? ta'lim usullari va metodlari demakdir (Saydaliyev, 2004). Metod- metodika tushunchasi grek-lotinchada "metodos-"metodus" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum

maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi (Jololov, 2012). "Metod" atamasi keng ma'noda o'quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab "didaktika" va "metodika" tor ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi? Masalalari bilan shug'ullanadi (Neuner, 2001). Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadryatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi (Neuner, 2001).

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi (Shcherba, 1974). Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng qimmatlilari ham tilshunoslar tomonidan yozilgan. Bular jumladan XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchi tilshunos hisoblangan O.Yespersion, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida eng ko'zga ko'ringan fransuz lingvistlaridan F.Bryuns va

Brealya, ko'zga ko'ringan anglist va taniqli fonetist V.Fiyotor va boshqalar kiradi. Rossiyada til o'qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.Shcherba va uning ustози buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shug'ullanganlar. Chet til o'qitish metodikasiga psixologlar o'zgacha munosabatda bo'ldilar. Metodika va psixologiya fanlarning o'zaro munosabatlari haqida professor V.A.Artemov qimmatli fikr bildirgan. Uning fikricha, psixologiya metodika uchun material beradi. Metodika o'qituvchining qanday dars o'tishini o'rganadi. Psixologiya esa, o'quvchilarning bu predmetni qanday o'zlashtirib olayotganliklari bilan shug'ullanadi. Lekin, bu fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Chunki o'qituvchi dars berish jarayonida, o'quvchi esa o'zlashtirish davrida ma'lum ruhiy jarayon va holatlarni boshdan kechiradilar, ular xohlaydilar, yo'qmi psixologiyaning qonunlariga ro'baro bo'ladilar va ta'sirlanadilar (Saydaliyev, 2004).

Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san'at deyilar. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya'ni "yaxshi" yoki "yomon" metod yo'q "yaxshi" yoki "yomon" o'qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berishi mumkin. U jumladan shunday deydi: "Agar kimki metodikani san'at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo'llanishi bilan qorishtirib yuboradi" (Saydaliyev, 2004).

Har bir fanda o'z tushunchalar yig'indisi mavjud. Chet til o'qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lim sistemasi, ta'lim metodi, ta'lim prinsipi, ta'lim vositasi, metodik usul.

Chet til o'qitish metodi- deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz

mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongliqiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo'la oladi, misol uchun, "til" ijtimoiy hodisasini o'z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta'limshunoslik (didaktika) o'rganadi. "Chet til metodikasi" atamasi kishi ongida quyidagicha ya'ni *assotsatsiya* "bog'lanish" uyg'otadi: avvalambor, tilni o'rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig'indisi tushuniladi yoki o'qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko'z oldimizga keladi. Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi o'ituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son –sanoqsiz ta'riflarga ega. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "tog'ri", "qiyosiy", "aralash" deb atash qabul qilingan.

Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish maqsadida

bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta'limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so'ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materiali o'zlashtirilgan.
6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan (Rahmanov, 1975).

Tarjimasiz metod. Mazkur metodning turli ko'rinishlari tarixan ma'lum. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: tabiiy va tog'ri metodlar. Tabiiy metodda chet tilni o'rganish ona tilini egallash sharoitiga monand bo'lishi kerak. Metodning bosh maqsadi chet tilda gapirishni o'rganish orqali o'qish va yozishni o'rganib olishga imkoniyat yaratiladi, degan g'oya amaliy maqsad tarzida shakllangan. Tabiiy metod tarkibiga kiritilgan prinsiplardan eng muhimi-til muhitini yaratishdir. Olg'a surilgan metodik prinsiplarni amalda qo'llash bobida turli yondashuvlar paydo bo'lgan. Metod namoyondalarining ijodiy faoliyatida buni yaqqol sezish mumkin.

Chet til ta'limidan ko'zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning bu sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi. Chet til ta'lim sohasida 70-yillarning boshidan beri to'plana boshlangan yangi xulosalar majmui ta'lim maqsadini belgilash sohasida qizg'in munozaralariga olib keldi. Chet til ta'limining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi maqsadi o'quvchilarga "muomala qilishni o'rgatish", "Befaeigung zur Kommunikation" (kommunikative Kompetenz) bo'lgan

yangi o'quv rejalari qabul qilindi. 70-yillarda "kommunikativ metod" bir qator urinishlardan so'ng bir necha bosqichda o'z isbotini topdi. Shunday asnoda metodika fani rivojlanib bordi (Neuner, 2001). Hech qaysi chet tilni biz uning metodikasini chuqur o'rganmasdan egallay olmaymiz. Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. *Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi.*

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;
- mavzu va mazmun muhim;
- darsdagi asosiy ish shakli suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;
- o'quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lishi zarur;
- Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish;
- Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko'rish tayanchi) muhim ro'l o'ynaydi;
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish (dialogni mashq qilish);
- Tildan og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi (Neuner, 2005).

Kommunikativ didaktika tinlab tushunish materialini sifatida tabiiy nutqiy vaziyatdan foydalanishni birinchi o'ringa qo'ydi, ya'ni, tarnsportdagi, vokzaldagi e'lonlar, radio va televideniyaedagi reklamalar, telefondagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishiiz mumkin. Axborotni tinlab tushunish qabul qilish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar o'zgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazorat qilish ham boshqacha tus oldi. Mazkur metod maqsaddan kelib chiqqan holda tinglovchiga tinlab tushunishning quyidagi turlarini ajratib berdi:

- Keng ma'noda matnning ba'zi bir detallariga ahamiyat bermay, uning asosiy mazmunini tushinish;
- Aniq informatsiya muhim bo'lganda, masalan, ma'lum bir joy uchun ob-havoning zarurligi, poyezdning kelishi-ketishi tog'risidagi e'lon va boshqalar shu metod jumlasidandir (Neuner, 2005). Aynan bu bilimlarni ongimizda saqlab

qolishimiz, kommunikativ didaktikaga oid ma'lumotlarni o'rganishimiz, "kommunikatsiya" tushunchasidan kelib chiqqan holda, "madaniyatlararo muloqot" terminiga o'zaro mazmuniy jihatdan bog'lanadi.

Chet til o'qitish metodikasida hozirda madaniyatlararo muloqot iborasi keng qo'llanib kelmoqda. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo'llashimiz mumkin. Aslida esa: ***Madaniyatlararo muloqot***- turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatilari, qadryatlari sistemasini va boshqalar to'g'risidagi muloqoti-ma'lumotidir. Mazkur jarayonda o'quvchi- talabalarni o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr- toqat qilish va o'zga mamlakat madaniyatini to'g'ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim.

Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, madaniyatlararo muloqot amaliyoti hisoblanadi. Chunki mazkur jarayondagi har bir chet tilidagi so'z chet el hayotini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. O'qituvchilar oldidagi vazifa o'quvchi va talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Buning uchun kishilarni samarali muloqot qilishiga o'rgatuvchi o'quv qo'llanmalar va chet tildagi to'rtta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning yangi metodlarini o'zlashtirish zarurdir.

Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlik, bag'rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, "Tee oder Kaffee?" ya'ni "choymi yoki kofemi" degan savolga ona tilimizda, - " Tee", "choy"- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob to'g'ri kelmaydi. Nemis tilida, "Bitte, Tee" ya'ni, "Marhamat, choy" deb javob beriladi. So'z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi. Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasida malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko'rgazmalilik, zamonaviy texnologiya turlari, usullari, izchillik prinsipi ta'minlansa, ta'limning sifati va samaradorligi oshib boraveradi.

O'qituvchi-muallimning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun nafaqat predmetli, pedagogik va psixologik bilimlar, balki yana boshqa alohida xususiyat–muloqot qila olish ko'nikma va malakalari ham, albatta, zarur hisoblanadi.

Inson go'dakligidan boshlab muloqot malakalarini egallay boshlaydi. Ammo katta bo'lganidan keyin hamma ham kerakli darjada muloqot o'rnatolmaydi. Pedagoglik kasbi o'z xususiyatiga ko'ra „inson- inson“ tipidagi kasblar sirasiga kiradi va shuning uchun ham muloqot qila olish ko'nikmasi pedagog uchun yetakchi, kasbiy muhim ko'nikmalardan sanaladi. Pedagogning o'quvchilar bilan olib boradigan muloqot va muomalasiga qarab bolalarning o'quv predmetiga qiziqishi, demakki, o'quv motivlari shakllanadi. Pedagogik muloqot usuli o'quvchilar tomonidan predmetli bilim, ko'nikmalarning natijaviyligi, shaxslararo munosabat madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi, ta'lim jarayonida o'ziga xos axloqiy–psixologik iqlimni vujudga keltiradi. Muloqot shaxs ijtimoiylashuvining muhim sharti hisoblanadi. Shu o'rinda pedagogik muloqot aslida nima ekanligini bilish zarur hisoblanadi.

Pedagogik muloqot- bu o'qituvchi va tarbiyalanuvchining o'zaro hamkorligi bo'lib, u o'zaro axborot, eng avvalo o'quv axboroti, almashinishiga asoslanadi, pedagogik muloqot sherigini anglashga, shuningdek, o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi. Bunda axborot ham verbal yani, nutq orqali, ham noverbal- vositalar orqali yetkaziladi. Pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchi asosiy rolni o'ynashi va o'quvchilar uchun namuna bo'lishi lozim. Bu uning kommunikativ madaniyati bilan baholanadi.

O'qituvchining **kommunikativ madaniyati-** bu uning o'quv-tarbiya jarayoni subyektlari bilan professional-pedagogik muloqotdir. Kommunikativ madaniyatning zaruriy darajasi sifatida shuni belgilash mumkinki, bunda o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari va hamkasblarini ijobiy qabul qila oladi hamda ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishishni so'zsiz ta'minlay oladi. Kommunikativ madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, uni egallagan o'qituvchi ta'lim jarayoni barcha subyektlari o'zaro munosabatlarida ijobiy psixologik iqlimni yarata oladi, ta'limni modernizatsiyalashning muhim

prinsiplari bo'lmish- insonparvarlik va demokratlashtirishni amalga oshiradi. Shaxsiy ahamiyati shundaki, kommunikativ madaniyatga ega bo'lgan pedagogning o'ziga ishonchi yuqori bo'ladi, tarbiyalanuvchisi bilan qurilgan muloqotdan zavqlanadi, tanlangan ish faoliyatida o'zini erkin his etadi. O'qituvchi kommunikativ madaniyati tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kommunikativ ko'nikmalar.
2. Pedagogning muloqotga kirishuvchanligi.
3. Pedagogning muloqot madaniyati.
4. Pedagogik muloqot metodlari.

Kommunikativ ko'nikmalarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. ***Ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar.*** Ular o'quvchilarni muloqotga kirishish uchun tayyorlaydi, ijobiy taassurot uyg'otadi, har bir o'quvchi shaxsini, uning mavqei darajasini qabul qilishiga, shaxslararo munosabat rivojini bashorat qilishga yordam beradi, psixologik ta'sir vositalarini qo'llashga, ishontirish, singdira olish, identifikatsiya qilishga imkon yaratadi.

2. ***Axloqiy-estetik ko'nikmalar.*** Bu muloqotni insonparvar, demokratik asosda ko'ra olish, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish, har bir o'quvchining shaxs sifatidagi qadr-qimmatini o'rniga qo'yish, o'quvchilar jamoasi va har bir o'quvchi bilan ijodiy hamkorlikni o'rnata olish ko'nikmalari sanaladi.

3. ***Estetik ko'nikmalar.*** Bu ichki va tashqi holatlarni uyg'unlashtira olish, artistik qobiliyatiga ega bo'lish, estetik ifodalanganlik, o'smirlarni muloqotning yuqori madaniyatligiga jalb qilish, ularning emotsional kayfiyatini, optimistik idrokini faollashtirish bilan belgilanadi.

4. ***Texnologik ko'nikmalar.*** Bu o'quv-tarbiya vositalari, metodlar, usullar o'zaro hamkorligining turli shakllarini tanlay olish, muloqotni boshqarishning optimal metodini tanlash, pedagogik nazokatga rioya qilish, uning tarbiyaviy samaradorligini oshirish bilan belgilanadi.

Pedagogik muloqot madaniyati uchun zarur bo'lgan qator shaxsiy sifatlar-haqqoniylik, ochiqlik, o'z-o'zini boshqara olish, talabchanlik, samimiylik, sabr-

toqatlilik, chidamlilik, taktika kabilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi faqat o'z kommunikativ mahoratini emas, balki o'quvchilarning ham madaniyatlararo muloqotini shakllantirishi lozim. O'qituvchi o'quvchi-yoshlar psixologiyasini yaxshi bilishi, ularning ijtimoiy qarashlarini, ijtimoiylashuv jarayonlarini puxta bilishi talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pedagogik, madaniyatlararo muloqot yakuniy natijaga ko'ra muaffaqiyatga erishishi yoki muaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala metodini tanlashi va uni qanday amalda qo'llay olishiga bog'liqdir. Pedagog dars mobaynida nafaqat o'zi ishlashi balki o'quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqitira olishi, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatishi lozim. Albatta, bu natijaga faqatgina, darsni tog'ri tashkil etish, ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin. Pedagogning innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, samardorlikka baho berishni ham qamrab oladi. Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalardan ko'rinib turibdiki, bunday ijobiy natijalarga erishish uchun pedagog chet til o'qitishda keyingi qadam, ya'ni "mashq texnologiyasi"ga murojat etishi lozim va uni amalda qo'llash bilim olishdagi ko'nikma va malaka sari yetaklaydi.

Chet til o'rganish mashqlar bajarishdan iborat jarayonidir deyilsa, mubolag'a yoki xato bo'lmaydi. O'zbekiston chet til metodistlarining 1970-1980-yillarda bajargan ilmiy tadqiqotlarida (J.Jalolov, T.Sattorov, A.Soyunazarov va b.) chet til mashqlar sistemasini o'zbekcha terminlar bilan **shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi** mashqlar turlariga bo'linishi aniqlangan. Shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirsada, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo'llanilishida va takomillashtiruvchi mashq chet tilda fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi, ya'ni bilim olish, ko'nikmani egallash va malakani o'stirishga mo'ljallangan mashqlar, deb qaraladi. Nutqni egallash xususiyatiga ko'ra, aniqrog'i, sezgi va analizatorlarning ishtirokiga qarab, retseptiv va reproduktiv nutq mashqlari bajariladi.

Chet tilda og'zaki va yozma mashqlar bajariladi. Og'zaki mashq dialog va monolog mashqlariga hamda og'zaki bajariladigan leksik, grammatik, talaffuz mashqlariga bo'linadi. Yozma mashqlar fikrni yozuvda ifoda etishni va yozish texnikasini o'rgatishga bag'ishlanadi. O'qish mashqlari grafik matnni o'qib axborot olish va o'qish texnikasini o'zlashtirishga mo'ljallanadi. Mashq va matn, mashq va she'r, mashq va harf, tovush, mashq va rasm kabi so'z birikmalari g'ayrimetodik tushunchalar sirasiga kiradi, chunki iboralardagi ikkinchi so'zlar mashqning materiali, ya'ni mashqning obykti yoki mahsulidir. Ona tili va ikkinchi tilda bunday ta'birlar erkin qo'llanaverishi mumkin. Bunga sabab, ularni o'qitishda qoidalar muntazam tarzda singdiriladi, Grammatik tahlil qilinadi, she'rlar ifodali o'qiladi.

Tinglab tushunishga mo'ljallangan (auditiv) mashqlar sistemasi maqsadiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Bular: maxsus va maxsus bo'lmagan mashqlar. **Maxsus bo'lmagan mashqlarda** tinglab tushunish yo'l-yo'lakay o'rgatiladi. Masalan, dars boshlanishidagi nutqiy mashg'ulot, so'z ma'nosini ochish chog'ida muallim hikoyasini eshitish, grammatikaning taqdimotidagi muallim gaplarini tinlash, o'zga shaxs nutqini magnit tasmasiga yozish kabilar maxsus bo'lmagan mashqlar sirasiga kiradi.

Chet tilda dars olib borish ham tinglab tushunishni o'rgatishda ajoyib ish metodi sanaladi. O'quvchi-talabalar dars davomida ishlatiladigan jummalarni tushunishlari uchun muallim juda ko'p marta takrorlamasligi, o'ta sekin ham aytmasligi, har doim ona tiliga tarjima qilavermasligi talab etiladi. **Maxsus mashqlar**, o'z navbatida, tinglab tushunishga tayyorlov va sof nutqiy mashqlarga bo'linadi. Tayyorlov mashqidan ko'zlangan maqsad, oldindan qiyinchililarni bartaraf qilishdir. Tayyorlov mashqlari tilga oid va o'quvchi psixologiyasi bilan aloqador qiyinchilikning oldini olishda bajariladi. Til qiyinchilikni bartaraf etishda o'zga nutqdagi yangi hodisalarni topib farqlash va tushunib yetish, tovush timsolini ma'nosi bilan bog'lash, so'z yasaliishini fahmlab ma'no chiqarish, leksik va grammatik birlikning kontekstdagi ma'nosini ochish, ma'nodosh va zid ma'noli hodisalarni tanib olish va anglash

singari mashqlar bajariladi. Ular tinglab tushunishning leksik, grammatik va talaffuzni eshitish mashqlari sifatida namoyon bo'ladi.

Chet til o'rganishda nutq mashqlari asosiy o'rinni egallaydi. Nutq mashqlari kommunikativ (muloqot) vazifani o'tashga mo'ljallanadi. Ularni auditiv faoliyatga yo'llovchi va bu faoliyat bilan shug'ullanish mashqlariga ajratish mumkin. Yo'llovchi (oriyentr) mashqlar o'quvchiga til va hayot tajribasidan foydalanib, audiomatnni tushunishda turli lingvistik va nolingvistik tayanchlarga asoslangan holda ish tutishni o'rgatadi. Kontekstni fahmlash, tajribadagi bilimlarni ishlatish, leksikaning xususiyatini ilg'ash, qiyinchiliklarni yengib matnni tushunish kabilar yo'llovchi mashqlar sirasiga kiradi. Mashqlarni nafaqat chet til egallashda, balki har qanday fanni, bilimni egallashda qo'llash ijobiy natijaga olib boruvchi yo'l hisoblanadi. Shuning uchun mashq har birimiz uchun nafaqat ilm dunyosini zabt etishda, qolaversa, hayotda ham o'z o'rnimizni egallashda bir ko'prik vazifasini o'taydi.

I bob bo'yicha xulosalar

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun "mashqni tashkil qilish texnologiyasi" muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chet til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'ngi qadam, "mashq texnologiyasi"ga e'tibor qaratish muhim. Chet til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

2. BOB. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Vaqlar o'tishi bilan birga insonlar va ularning talab va ehtiyoji ham o'zgarib boraveradi. Bu isbot talab qilinmaydigan aksioma sanaladi. Hayotimizning turli jabhalarida bo'lgani kabi chet tillarni o'rganish borasida ham shunday tarixiy jarayonni kuzatishimiz mumkin. Bundan minglab yillar avval diyorimizda arab, fors tillari kabi chet tillarga bo'lgan ehtiyoj, qiziqish qay darajada rivoj topgani, buyuk allomlarimiz ushbu tillarda ilmiy tadqiqotlariga tartib berganlari, bobokalon shoiru-yozuvchilarimiz ushbu tillarda durdona asarlar yaratib, o'lmas meros qoldirganliklari barchamiz uchun kunday ravshandir. Bularning barchasi o'sha davr ehtiyoji, o'sha davr talabidir. Xo'sh, hozirgi kunda, ya'ni XXI asrning boshlang'ich choragida davlatning til siyosati qanday holatda? Dunyodagi global taraqqiyot, yangi kashfiyotlar, ayniqsa, internet aloqa tizmining tillarni o'rganishga ta'siri qanday? XXI asrda qaysi xorijiy tillarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratish lozim va nima maqsadda? Darvoqe, davr taraqqiyoti, globallashtirish jarayoni yoshlardan bir necha xorijiy tillarni

bilishlarini talab etmoqda. Ushbu ehtiyojlardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012–yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari tog'risida”gi Qarori Respublikamizda chet tillarni o'qitish siyosatining yangi bosqichiga asos solib berdi. Uzluksiz ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh, intellektual salohiyatga ega mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu qaror ijrosidan so'ng ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash jarayoni keng tus oldi. Bugungi kunda, ilmiy texnik taraqqiyot har sohada shuningdek, ta'lim-tarbiya sohasiga ham yangi-yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'quv tarbiyaviy jarayonlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurligi ta'kidlanganligi uchun ta'limning yangi modellari yaratilmoqda. O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqorolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- Aqilli- mustaqil fikr yurita oladigan;
- Odobli- millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega;
- Mehnatsevar- mehnat kishining ijtimoiy ehtiyojiga aylanganligi;
- Bilimli- diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotda qo'llay olishi;
- Sog'lom- jismoniy, ruxiy va ijtimoiy salomat;
- Milliy g'ururga ega- ajdodlarmizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan fahrlanuvchi va ularni boyitishga xissa qo'shuvchi;
- Vatanparvar- Vatan uchun, xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muhofaza qila oluchi va zrrur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi;
- Insonparvar- inson zotiga faqat yaxshiliklar tilovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluchi
- Jasur va shijoatli- har bir ishga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga yetkazuvchi. Bu o'nta ijtimoiy sifat jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan

davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi lozimdir.

Maqsadlarni amalga oshirish Respublikamiz olimlari R.X.Jo'rayev, U.N. Nishonaliyev, A.A.Parpiev, N.S. Saidaxmedov, M.V.Klarin, M.Dadaxo'jayev, hamda qozog'istonlik olimlar M.J.Aristanov, J.S.Xaydarov o'z ilmiy tadqiqotlarida "Pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga harakat qilganlar. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz o'quv yurtlaridagi kadrlar tayyorlash jarayoni mazmunini yanada boyitib, uni jahon andozalari bilan uyg'unlashuviga, shu bilan birga mustaqillik mafkurasi, o'zbek xalq pedagogikasi va milliy an'analarga xos va mos bo'lgan pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'ldi. Xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab ayni paytda ehtiyojga aylandi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar, keskin sur'atlar bilan rivojlanish ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo etmoqda, til o'qitishning zamonaviy metodlarini izlab topish va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishga talab kuchaydi. Yetakchi olimlar, metodistlar tomonidan xorijiy til o'qitilishining zamonaviy pedagogik texnologiyalari, metod va usullar izlab topildi.

Chet tilini pedagogik texnologiya asosida o'rgatishning avvalgi metodlardan afzalligi, birinchidan, u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari ta'lim bosqichlarini loyihalab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim natijalarini baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'liq tizimga keltirib turib, uning loyihasini tuzishidadir. Ikkinchidan, u talabalarning o'zlariga berilgan bilimni yodlab olib aytishga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarilishiga yo'naltirilganligidadir.

Pedagogik texnologiya- bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari

bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbir sanaladi.

Texnologiya - yunoncha «**techne**» so'zidan olingan bo'lib, **mahorat, san'at** va «**logos**» - *so'z, ta'limot* ma'nosni, inglizcha “an education technology” so'zining noaniq tarjimasidan kelib chiqqan. U aslida “Ta'limiy texnologiya” deb tarjima qilinishi kerak. Ta'limga texnologiyani olib kirish butun asr mobaynida davom etib kelmoqda. Taxminan 50-yillarning oxirigacha pedagogik texnologiya an'anaviy ta'lim uchun texnik muhit hosil qilish, avtomatlashtirilgan vositalar majmuasini qurish bilan bog'liqdir. Bugungi kunda ta'lim texnologiyasi pedagogik fanlar sohasi sifatida qaralmoqda. Texnologiyaning taraqqiyotida inson psixologiyasi katta o'rin tutadi. Tarixan ta'limiy texnologiya taktik jihatdan faoliyat ko'rsatgan va rivojlangan.

Texnologiya- jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek obyektga sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushuniladi.

Ta'limiy texnologiya- deb quyidagilarni o'z ichiga olgan majmuaga aytiladi va tushuniladi.

- Rejalashtirilayotgan natijalar tog'risida tasavvur mavjud bo'lishi;
- O'rganuvchilar joriy holatini aniqlashga yordam beruvchi diagnostik vosita;
- O'qitish modellari to'plami;
- Aniq sharoitlar uchun optimal modelni tanlash mezon.

Pedagogik metodlar qo'llanilayotgan vositalarga bog'liq emas. Eng yaxshi texnologiya deb hisoblangan usul ham agar u ijobiy natija bermasa uni yaxshi yo'l deyishga o'rin qolmaydi. Aksincha oddiy savol-javob metodi ham ta'lim samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin. Ta'lim tizimida o'qitish jarayoninig o'ziga xos xususiyatli tomonlari mavjud bo'lib, samarali natijani kafolatlash asosan pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«**Pedagogik texnologiya** – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

“**Pedagogik texnologiya**- bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir”.

“**Pedagogik texnologiya** – pedagogning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy – sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa”.

“**Pedagogik texnologiya** – pedagogik jarayonni boshqarish omili sifatida quyidagi mazmunga ega: PT - ta'lim jarayonini loyihalash asosida tashkillashtirish, uning samarali natijasini kafolatlovchi xususiyatlarga, (pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik stil, pedagogik aniqlik) pedagog faoliyatining innovatsion xususiyatlariga (ijodkorlik–kreativlik, yuksak professionalizm–akmeologiya, tahliliy va tanqidiy yondoshuv-refleksiya) tayangan holda ta'limning yangi shakl va usullarini yaratish va amaliyotga joriy etishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir”. Pedagogik texnologiyaaning metodologik sifatlari quyidagilardan iborat:

- Texnologik sxema;
- Ilmiy asos;
- Tizimlilik;
- Boshqaruvchanlik;
- Samaradorlik;
- Takrorlanuvchanlik.

Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchaytirish, ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni murakkab hisoblanadi. Xorijiy til darslarida yangi o'quv materialini prezentatsiya, uning turli mashqlar orqali mashq qilinishi va turli nutqiy vaziyatlarga mos qo'llash orqali tegishli nutqiy ko'nikma va malakalar xosil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Talabalarning darsdagi faolligini oshirishda qator interfaol usullardan foydalanish mumkin.

Interfaol metod iborasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib, u talabalarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning qator turlari bo'lib, hozirda keng qo'llanilayotgan "aqliy hujum", "ishbilarmonlik o'yinlari", "pinbord", "klaster", "sinkveyn", "kubik texnologiyasi", rolli o'yinlar kabi interfaol metodlarning ayrim ko'rinishlari ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol o'qitishda guruh-guruh bo'lib o'qitish, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar tuzish, samarali hisoblanadi. Yuqoridagilarni umumlashtirib "INNOVATION TEXNOLOGIYA" deb atash mumkin.

Innovatsion texnologiya- ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba–sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan.

Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbqiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda erkin muloqatga kirishishini rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni bilim oluvchining faolligini oshirishga va dars jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muoammolarga o'z munosabatlarini bildirishga intilishlarini tarbiyalab, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol darslarda o'qituvchi o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadiga yo'naltiradi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashi, ijod va izlanishga jalb etilishi, ta'lim jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari doimiyliigi ta'minlanishi, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizini o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishi tashkil etiladi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyoji, qiziqishidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik texnologiya, umuman olganda, reproduktiv (nusxa olish) dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni o'quvchilarga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga

yo'naltirilgan. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv eng avvalo tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida o'quvchilar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib bormoqda, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayoning ajralmas qismiga aylanib borayotgan unga o'zini ma'lum xususiyatini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audio vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyati nuqtai nazaridan boshqa texnologiyalar bilan bir qatorda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Ammo pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga tushunarli bo'lmagan texnologik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati-tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidadir.

Chet tili darslariga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Bunda o'qituvchiga dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish va ularni o'z vaqtida va dars jarayonida qo'llash, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim. Murakkab mavzularni o'quvchilar ongiga singdirish uchun pedagogik texnologiyalarning turli xil metod (usul)laridan "Aqliy xujum", "Klaster", "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash", "BBB (Bilaman.Bilishni xoxlayman.Bilib oldim.)," "Nilufar guli", "Pinbord" metodlari shular jumlasidandir.

Amaliy mashg'ulotlarda xorijiy tilni o'qitishning asosiy, tarkibiy qismlari- bu tinlab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni kompleks holda integrallashtirib olib borishdan iborat. Albatta, xorijiy tilni o'rgatishning turli metod hamda texnologiyalari ko'payib bormoqda. Bulardan o'rganuvchilarning yosh, kasb, qiziqish kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish o'z samarasini beradi. Har qanday xorijiy tilni o'rgatishning dastlabki davrlaridan boshlab o'rganuvchilarga kundalik hayotda kerakli iboralar kichik-kichik dialoglar, grammatik o'yinlar berib borilishi tavsiya etiladi. Bu usullar o'rganuvchilarga shu tilga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Keyinchalik mavzular, usullar, texnologiyalar o'zgarib, murakkablashib boradi. Bunda debat, intervyu, musobaqa kabi o'yin turlaridan keng foydalanish o'rganuvchining erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlarini rivojlantiradi, o'rganuvchilarni nutqiy muloqotga va dialoglarda erkin qatnashishga tayyorlab boradi. Bu esa o'rganuvchilarning fikrlash, o'ylash, xulosa qilish kabi qobiliyatlarini o'stirishda samarali usul hisoblanadi. Chet tillarni mustahkam va mukammal o'rganishda albatta amaliy mashqlarning o'rnini yuqori. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu jarayon yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyanan holda amalga oshirilsa, o'rganuvchilarning tilga va o'quv mashg'ulotiga bo'lgan qiziqishi yanada jadallashadi. Muallim-o'qituvchi mavzuni o'tishdan oldin, tashkiliy qismdan so'ng "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, o'rganuvchilarning bilim-saviyalarini sinab olishi kerak bo'ladi. Bu usul bilan talabalarning diqqatini

mashg'ulot mavzusiga qatatish uchun savol-javob tashlik qiladi, bu jarayon talabala-yoshlar faolligidan kelib chiqqan holda, 5-10 daqiqani tashkil etishi mumkin. "Aqliy hujum" metodidan foydalanib mashg'ulotlar tashkil qilinganda o'rganuvchilar tavsiya etilgan muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladilar, vaziyatdan chiqib ketishning turli yo'llarini o'ylab topadilar, bu esa ularning darsga qiziqishiga, faollashuviga olib keladi. Har bir talabaning bergan javobi inobatga olinadi. Ushbu javoblar notog'ri yoki aniq javobga yaqin bo'lishi mumkin. Asosiysi, har bir talabadan, o'z javobini asoslashi, himoya qilishi so'raladi. Bu usulni o'tilgan mavzuni takrorlash paytida ham qo'llash mumkin. Bu esa o'rganuvchilarni, talabalarni o'ylashga, hozirjavoblikka o'rgatadi. Ushbu metod qo'llanilganda nafaqat o'rganuvchi balki o'rgatuvchining o'zi ham faol bo'lishi talab etiladi. "Aqliy hujum" metodining qo'llanishidan quyidagi natijalarni kutish mumkin:

- Darsda o'rganuvching faolligi ortadi;
- Har bir o'rganuvchi xorijiy tilda olgan bilim va ko'nikmalarini ko'rsatish uchun, o'z fikrini bayon etishga harakat qiladi;
- O'rganilayotgan xorijiy tilning grammatik qoidalari og'zaki nutq orqali bayon etilib, amalda qo'llaniladi;
- O'rganuvchilarning xorijiy tilga qiziqishi ortadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanib xorijiy tilni o'rgatishda o'rganuvchilarning nutqi rivojlanadi, o'rganilgan mavzular mustahkamlanadi, natijada o'rganuvchilar erkin fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'la oladilar. Uzlüksiz ta'lim tizimida olib borilgan tajriba va kuzatuvlar natijasi o'laroq xorijiy tilni o'rgatish samaradorligini oshirishda quyidagilarga amal qilish barcha fan vakillari uchun tavsiya etiladi:

- ✓ Xorijiy tilga o'rgatishning bog'cha yoshidan qiziqishlarni orttirish, o'rgatish, rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish;
- ✓ Uzlüksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash;
- ✓ Mashg'ulotlarda ta'limning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini qo'llaganda ular orasidagi mantiqiy bog'liqlikka qat'iy amal qilish;

- ✓ Amaliy mashg'ulotlarda harakatli o'yinlardan keng foydalanish;
- ✓ Har bir o'rgatuvchi-muallimning o'z shaxsiy metodini yaratishga va undan ta'lim jarayonida foydalanishga erishish.

O'qituvchi davlat ta'lim standartti buyurtmasiga mos keluvchi ta'lim va tarbiyani aniq belgilab olishi va shu asnoda pedagogik mahorat bilan didaktik maqsadni amalga oshirib borishi kerak. Buning uchun esa yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida fanlar orasidagi bog'liqlikni ham ta'minlash lozimdir. Shuningdek, o'quvchi faoliyatini tog'ri boshqarish, vaqtdan unumli foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari paytlarda ham o'quvchilarni foydali ishlarga yo'naltira olish, ularning erkin va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga imkoniyat yaratib berish, xorijiy tillarni havas bilan o'rganishni va ularning faolligini ta'minlovchi zaruriy omil hisoblanadi. O'quvchilarning faolligi deganda ularning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi singari qator muammolar tushuniladi. Yangi pedagogik texnologiya jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilsa, o'qishning sifat va samaradorligi ijobiy bo'ladi:

- ❖ Uy vazifasini me'yori bilan berish va o'quvchi qiziqib, sevib bajaradigan mavzularni tanlash;
- ❖ Vazifa sifatida berilgan materiallarni sinf bilan birgalikda muhokama qilish, yutuq va kamchiliklarni to'ldirib, mulohaza qilish;
- ❖ O'quvchida burch va mas'uliyatni shakllantirish;
- ❖ Bilimlarni amaliy ishlar bilan bog'lab olib borish, ijodiy faoliyatga o'rgatish;
- ❖ Milliy g'urur va do'stlik hissiyotini tarkib toptirish;
- ❖ Kompyuter savodxonligini shakllantirish;
- ❖ Chet tillari darslari jarayonida tarqatma materiallar, ko'rgazmalri qurollar, zamonaviy metod va usullardan keng foydalanish.

Pedagogik texnologiya dars mobaybida qanchalik mahorat va uddaburrolik bilan qo'llansa, ta'limning sifati shuncha yaxshilanib boraveradi.

Bugungi kunda barcha oliy ta'lim dargohlarida shu jumladan oliy ta'lim muassasalarida ham zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia majmualari, interaktiv metodlarga asoslangan zamonaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalari,

audio-video metodik qo'llanmlar kerakli o'quv qurollari, ko'rgazmali materiallar, zamonaviy kompyuter majmualari, elektron va interaktiv doskalar bilan ta'minlanib kelinmoqda. Bu esa ilm dunyosiga bo'lgan qiziqish, xususan, chet tillariga oid bilim va ko'nikmalarni kengaytirishga bo'lgan yo'llarni yanada ko'paytiradi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta'lim tarbiya maqsadi va vazifalari shunday belgilanishi lozimki, unda umumiy jamiyat o'quv maqsadlari va har bir bosqichlarning aniq maqsadi va vazifalari mushtarak bog'liqligini ta'minlash lozim bo'ladi. Belgilanagn maqsadni shartli ravishda ikki guruhga bo'lsak, birinchi guruh pedagog faoliyatida belgilangan maqsadlar, ikkinchi guruhda esa o'quvchilar ya'ni talabalar uchun maqsad vazifalardir. Bu ikkala maqsadlarning amalga oshirilish jarayoni ta'lim samaradorligini kafolatlaydi.

An'anaviy dars- muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modeli hisoblanadi. Bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonini passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli tuman metodlar bilan boyitish o'quvchilarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqtirilishi ortib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materiallarini kichik bo'laklarga bo'lib, ularni mazmunini ortishida bahs-munozara aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarni keltirish, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish zarur bo'ladi. Ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Dars samaradorligini oshirish uchun "Pinbord" metodidan foydalanish ham mumkin. "Pinbord" so'zi inglizchadan olingan bo'lib, "pin- mustahkamlash", "board- doska" ma'nosini anglatadi. Bu o'qitish metodining

mohiyati shundan iboratki, unda munozara va o'quv suhbatlari amaliy usul bilan bog'lanib keladi. Uning afzallik tomonlari rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifasidir. O'quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllantiriladi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati mantiqiy va tizim fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Undan tashqari darslar samaradorligini oshirish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanishimiz mumkin:

- **Bahslar:** o'quv guruhlarini ikki guruhga bo'lgan holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs-fikr almashinuvi tarzida o'tkaziladi.
- **Muzyorlar:** ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar orasida to'siqni yo'qotishga qaratilgan.
- **O'yinlar:** ishbilarmonlik yoki rol o'yinlari. Faqat bu o'yinda matnli materiallar o'rniga o'quvchilar tomonidan rol o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.
- **Kitob bilan ishlash:** ushbu usul ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishini, o'z-o'zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnning mazmunini ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usullar.
- **Individial (amaliy usul).** Ta'lim oluvchilar faoliyatida olgan bilimlarini amaliy vazifani yechishiga qaratadilar.
- **Suhbatlashish:** bu o'qitish va o'qishning dialog, savol-javob usullaridir. Suhbat individial va guruh shaklida o'tkazilishi mumkin.
- **Boshqalarni o'qitish:** bu usulda ta'lim oluvchilar qo'yilgan muammo bo'yicha bir-birlariga axborotlar va ma'lumotlarni o'rgatadilar.
- **Davra suhbatlari:** ta'lim oluvchilar davra stolida o'tirib, bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozishadi.

O'zbekistonda bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga talab yanada kuchayib bormoqda. Mana shu vazifalarni yoshlar tomonidan bajarilishi jamiyatimizni jahon hamjamiyatiga kirib borishini har tomonlama tezlashtiradi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni

rivojlantiradi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim tog’risidagi qonun” da chet tilini o’rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o’zlashtirish zarurligi ta’minlab qo’yilgan. Dars samaradorligi asosan o’quv jarayonida qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bog’liq. Chet til darsi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish talabani tilga bo’lgan qiziqishini yanada oshiradi va ularning tildan egallaydiga bilim, ko’nikma va malakalarini yuqori bo’lishini ham ta’minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiya shakliga ko’ra erkin ta’lim, noan’anaviy mashg’ulot va faollashtirish, metodiga ko’ra izlanish, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil ijodiy erkin fikrlashdir. Chet tillarni o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars jarayoniga tatbiqi quyidagilardan iborat:

- ❖ Chet tillarni o’qitishda kompyuter texnologiyasi (internet) yordamida bevosita masofaviy ta’limdan foydalanish;
- ❖ talabalarning guruhli va bajargan ishlarini hamda kompyuterli nazoratni tashkillashtirish (test topshiriqlarini kompyuter orqali amalga oshirish);
- ❖ Texnik vositalardan foydalanish (audiomagnitofon, video);
- ❖ Ko’rgazmali qurollardan foydalanish (mavzular bo’yicha rasmlar, sxemalar) dan iborat.

Dars ta’lim tarbiyani amalga oshirishning eng qulay, eng zaruriy omili hisoblangani uchun ham, hayotimizda tub burilish bo’layotgan bir paytda darslarning ayniqsa, chet til mashg’ulotlarining shakli va mazmuni, g’oyaviyligi, ta’sirchanligi, samaradorligi ham o’zgarishi lozimdir. Zamonaviy darsga qo’yiladigan talablar quyidagilar hisoblandi:

- Darsning ta’limiy- didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini tog’ri qo’ya bilish va ularni tog’ri amalga oshirish.
- Darsda faol usul va metodlarni qo’llay bilish.
- Dars jarayonida xalq pedagogikasi an’analarini jahon pedagogikasi, didaktika borasida yaratilgan yangiliklarni qo’llash.

Zamonaviy dars xujumkor ruhda shiddatli bo’lishi kerak. O’qituvchi dars bilan hamnafas, zamon bilan barobar, hatto undan oldinroq borishi lozim. U

zamon talablaridan kelib chiqqan holda zamon ruhiga mos dars tashkil qilsa, dars zamonaviy, yangiliklarga to'la bo'lishi muqarrar.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirishda o'quv jarayonida kompyuter texnikasidan, zamonaviy informatsion texnika vositalaridan foydalanish, o'quvchilarni dastur materiallarini izchillik bilan to'la o'zlashtirib, olgan bilimlarni amaliy tatbiq qilish uchun imkoniyatlar eshiklarini ochib beradi. Kompyuter asosida xorijiy tilni o'rgatishdan maqsad til imkoniyatlaridan unumli foydalanib o'qitish sifati va tezkorligini oshirishdan iboratdir. Buning uchun esa, bevosita kerakli dasturiy ta'minotni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Darslarni samarali tashkil qilishda o'qituvchi–muallim asosiy ro'l o'ynaydi. Sababi, muallim izlanuvchan darsga nisbatan talabchan, qiziquvchan bo'lsa, barcha imkoniyatlardan foydalanib darslarni qizqarli tashkil qila olsa, albatta, undan tahsil olayotgan talaba-yoshlar ham shunday bilimli, izlanuvchan, kelajakga umid bilan qarovchi, dunyoqarashi keng, yangiliklarga intiluvchi, barkamol va ziyoli bo'lib tarbiyalanishi shubhasiz.

II bob bo'yicha xulosalar

Ushbu bob “Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar” deb nomlangan. Bu bobda asosan “zamonaviy ta'lim” va “an'anaviy ta'lim”ning o'zaro farqi, pedagogik texnologiya tushunchasining o'zaro mazmuni, pedagogik texnologiya tog'risidagi olimlarning bergan ta'riflari, o'zaro fikr va mulohazlari keltirib o'tilgan. Ta'lim jarayoni murakkab jarayondir. O'quvchi-yoshlar ongida yangi o'quv materialini singdirish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muoammolarga o'z munosabatlarini bildirishga intilishlarini tarbiyalab, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. masalan, bular qatoriga “Aqliy hujum”, “Pinbord”, “Sikveyn” kabi metodlarni kiritishimiz mumkin. Ushbu metodlar orqali talaba-yoshlar bilim-saviyasi ortadi. Bugungi texnika rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni zamon talablariga mos, har tomonlama yetuk bilimli, zukko, qobiliyatli qilib

tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarini foydali tomonlari talaba-yoshlarning bilim faoliyatini rivojlantirish bo'lib, ularni har tomonlama tarbiyalaydi, keyingi mavzularga qiziqishi ortadi. Chet tili darslariga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, uni ta'lim jarayoniga joriy etish, dars o'tishning yangi usullarini topish davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Shuning uchun, har bir pedagog darsning sifatini yaxshilashda, uni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi zarur va ta'lim tizimimizni jahon ta'lim darajasiga ko'tarish maqsadiga o'z hissasini qo'shishi muqarrar.

3-BOB. OLMON TILI O'QITISHDA PEDTEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Qadimdan xorijiy tillarni o'rganish har bir xalq uchun hayotiy ehtiyoj va zaruriyat bo'lgan. Darvoqe, faqat til barcha yangiliklar, kashfiyotlar va madaniyatlar elchisidir. Bu borada buyuk bobokolonlarimiz Beruniy, Ibn Sino, Forobiy va shu kabi olimlarimiz misol bo'ladi. Ularning o'z davrlarida qanchalik g'arb va sharq tillarini o'zlashtirganliklari, o'sha tillarda qalam tebratganliklari va taraqqiyotga qo'shgan hissalari asrlar osha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q, albatta. Til ham taraqqiyotga o'z hissasini qo'shadigan omillardan biriga, fan-texnika, madaniyat yutuqlarini olib kiruvchi faktorlardan biriga aylanmoqda.

Ma'lumki, mamlakatshunoslik tili o'rganilayotgan xalqning tarixi, davlat tuzumi, yashash tarzi, adabiyoti, san'ati, urf-odatlari, xullas shu xalq va mamlakat hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni o'rganadi. Bunday ma'lumotlar majmui til ta'limining mamlakatshunoslik asoslarini tashkil qiladi. Jahondagi 5000 dan ortiq tillar ichida olmon tili eng nufuzli o'rinlardan birini egallaydi. Bu tildan 90 mln aholi ona tili sifatida foydalanadi. Yevropa aholisining 24 % olmon tilini ona tilim deb hisoblaydi, 50 mln kishi bu tilda biyron so'zlasha oladi, 20 mln kishi esa chet tili sifatida o'rganadi. Olmon tili mashhur faylasuf, ijodkor, musiqachi, taniqli olimlarning ona tilisi hisoblanadi.

Bu tilda Lessing, Shiller, Rentgen, Enshteyn kabi allomalar o'zlarining jahonga mashhur, durdona asarlarini yaratganlar. "Deutschland" jurnalining 2014-yilgi ma'lumotiga ko'ra dunyoda quyidagi mamlakatlarda olmon tili chet til sifatida keng miqiyosda o'rganiladi.

Rosssiya Federatsiyasida	- 4657500
Polsha	- 22022702
Fransiya	- 16033813
Ukraina	- 1235647
O'zbekiston	- 855900
Chexiya	- 799071
Vengriya	- 628874
Qozog'iston	- 528875
Niderlandiya	- 591199
AQSH	- 551275

Olmon tili juda go'zal va ko'p qirrali til, uning ajoyib badiiy adabiyoti mavjud. Olmon tili olimlar, faylasuflar va huquqshunoslar tomonidan yaratilgan. U og'zaki til emas, balki yozma til hisoblanadi, ya'ni gapirladigan emas, balki o'qiladigan tildir. Uning estetik ta'siri murakkab, bolalarcha sodda emas. Olmon tilida grek va lotin tillaridan tarjima qilingan tushuncha va iboralar juda ko'p uchraydi va keng qo'llanadi. Qadimiy so'zlar chiroyli, quloqqa yoqimli chalinadi, eshitiladi, musiqa bilan hamohang, kuyga oson tushadi. Olmon tili o'rganish uchun qiyin til hisoblanadimi? Degan savol tug'iladi. Bu savolga, ha, boshlanishida shunday, deb javob berishimiz mumkin. Chunki til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni, asosiy tushunchalarni yaxshi o'zlashtirib olmay, ularni bir-biri bilan bog'lab olmasdan turib olmon tilini o'zlashtirib olish qiyin. Poydevor yaxshi qurilgandan so'ng u yog'i oson kechadi. Qanday qilib tilni eng oson, tez va yaxshi o'rganish mumkin? Degan savolga uzoq yillardan beri javob izlanadi. Hozirgi kunda Germaniyadagi 50 dan ortiq oliy o'quv yurti bu masalaga aniqlik kiritish bilan band. Bu savolga umumiy ma'noda haqiqiy tog'ri va aniq javob hamda metoq yo'q, lekin konkret o'quv guruhi uchun tez va oson o'rgatadigan metod mavjuddir (Saydaliyev, 2004). Bu borada jahon ilm-fanning

mashxur namoyandalari, tadqiqotchi-olimlari bir necha necha yillar mobaynida bosh qotirganlar va shu xususda o'zlarining fikr-mulohazalari, tavsiyalari bildirib muammoga oydinlik kiritganlar. Shundan so'ng til o'rganish, o'rgatish va baholash bo'yicha jahonda yagona tashkilot bunyod etilgan.

"Til o'rganish, o'rgatish va baholash bo'yicha Umumyevropa hamkorligi tavsiyalari" (Tavsiyalar) Yevropa Ittifoqi buyurtmasiga muvofiq bunyodga keltirilgan va barcha tillarni o'rganish va o'rgatish jarayoniga tatbiq etish uchun mo'ljallangan. Tavsiyalar o'quv rejalari, ta'lim standartlari, o'quv qo'llanmalari yaratish va test sinovlarini tashkillash va o'tkazish uchun asos vazifasini bajaradi. Ushbu hujjatda tildan aloqa vositasi sifatida foydalana oladigan bo'lish uchun qanday bilim, ko'nikma va malaklar egallanishi lozimligi haqida ko'rsatmalar berilgan. O'quv yurtlarida olmon tili ta'limidan amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz o'quv yurtlaridagi kadrlar tayyorlash jarayoni mazmunini yanada boyitib, uni jahon andozalari bilan uyg'unlashuviga, shu bilan birga mustaqillik mafkurasi, o'zbek xalq pedagogika va milliy an'alariga xos va mos bo'lgan pedagogik texnologiyasi yaratishga asos bo'ldi. Xorijiy tillarni o'rganishga ayni damda ehtiyojga aylandi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar, keskin sur'atlar bilan rivojlanish ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo qilmoqda, til o'qitishning zamonaviy metodlarni izlab topish va ta'lim jarayoniga tatbiq qilishga talab kuchaydi. Yetakchi olimlar, metodistlar tomonidan xorijiy til o'qitilishining zamonaviy pedagogik texnologiyalari, metod va usullar izlab topildi. So'nggi paytlarda olmon tili o'qitilishida an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli o'laroq loyihalash metodi va boshqa metodlar kirib keldi.

Loyihalash metodi o'qitishning tashkil etilishi bo'lib, o'quvchilar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishida bilim oladilar. Loyihalar metodi konstruktivizm, ya'ni muammoli-tadqiqotli metodlarga xos umumiy nazariy asos va yondashuvlarga ega. Konstruktivizm-

bu o'qish mehanizmini tushuntiruvchi nazariyadir. Bu nazariyaga ko'ra, "bola o'z intellektining me'mori" dir. U o'zi o'rganmasa, unga hech kim, hech narsani o'rgata olmaydi. Buning uchun konstruktivist o'qituvchi o'quvchining o'quv-izlash jarayonini konstruksiyalab, ya'ni munosib o'quv muhitini yaratib, didaktik topshiriqlar asosida haraktalar rejasini ishlab chiqishi kerak. loyihalash metodi ta'limga konstruktiv yondashuvdir. Loyihalashtirish metodini olmon tili darslarida qo'llash natijasida loyiha ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi va o'zining ijobiy natijasini beradi.

Olmon tili darslarida foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalardan yana biri ***hamkorlik texnologiyasidir***. Bu texnologiyada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi.

Didaktik o'yin texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Didaktik o'yinli darslar o'quvchilarning bilim olishiga, mazmuni va mohiyatiga ko'ra, syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar va o'yin mashqlariga ajratiladi. Har bir didaktik o'yinli darsning didaktik maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni, mazmuni ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etikishi mumkin.

O'quvchilarga chet tillarini o'rgatishda lisoniy, psixologik to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan innovatsiyalardan "ANGLA-ANGLAT" innovatsiyasida o'qituvchining o'zi dastlab bugungi kunda chet tillarini o'rganishning ahamiyatini tushunib oladi hamda o'quvchi va uning ota-onasiga chet tilini o'rganishning mohiyati, o'quvchining kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar uning hayotidagi o'rnini ta'sirchan metodlar orqali tushuntirish, natijada esa o'quvchida, ota-onalarda chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish,

"UYALMA-UYALTIRMA" innovatsiyasida chet tilini o'rganishning eng muhim sharti muloqotga kirishishda uyalmaslik lozim ekanligini o'qituvchi va o'quvchi anglashi, ayrim harflar va diftonglarni talaffuz qilishda xato qilishdan qo'rqmasdan muloqotga kirishadi. Chet tilida muloqot qilish, so'z va jummalarni

tog'ri talaffuz qilish tajriba orqali kelishini anglagan holda so'zlashuvga kirishishi,

"GAPIR-GAPIRTIR" innovatsiyasida chet tillarini o'rganishda sinfda, maktabda, auditoriyada chet tilida muloqot muhitini shakllantirish orqali o'quvchi-talabalarni chet tilida gapirtirish uchun o'quvchi-talabalarga ta'sir ko'rsatadigan barcha psixologik to'siqlar olib tashlanib, auditoriyada ijodiy muhit shakllantirish.

Pedagogik innovatsiya– deyilganda samarali natijaga erishish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangiliklar, ijobiy o'zgarishlar kiritish tushuniladi. Pedagogik innovatsiyalar ilmiy maktablarda, ta'lim amaliyotida hamda olim va pedagoglarning ijodiy faoliyati natijasida vujudga keladi. Innovatsiya har tomonlama puxta rejalashtirilgan, o'quv jarayoniga maqsadli kiritilayotgan yangi ta'limiy amaliyot ya'ni, *yangi tartib, yangi metod, metodologiya, texnologiya va boshqalar* hisoblanadi. Innovatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- ✓ Innovatsiyalar doimo dolzarb muammoning yangi yechimini o'z ichiga oladi.
- ✓ Ulardan foydalanish yangi sifatli natijalarni olish imkonini beradi.
- ✓ Innovatsiyalarni tatbiq etish tizimidagi barcha komponentlarning sifatli o'zgarishlariga olib keladi.

Interfaol metodlar bilan ishlashning bir qator afzalliklari bo'lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin;

1. Ta'lim oluvchilar bilimlarni qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganadilar. Bu esa ularni faollashtirishga olib keladi.
2. Dars jarayonidagi faollik, o'qib-o'rganish bilan bog'liq faoliyatda yuzaga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.
3. Ta'lim oluvchilarga nisbatan individual yondashuvni keltirib chiqaradi. Ma'lumki, bunday yondashuv shaxs xarakterining o'ziga xos sifatlarini (qobiliyati, qiziqishi, xotirasi, bilim darajasini) hisobga olgan holda

auditoriyada va auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil qilishning samarali usullari va yo'llarini tanlash imkoniyatini yaratadi.

4. Ta'lim jarayonida juft-juft, guruh-guruh bo'lib ishlash usullaridan keng foydalaniladi. Bu esa ta'lim oluvchilarga o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish, jamoaviy ishlash, ijodkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.
5. Ta'lim oluvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Ular bilimlarini tayyor holda olmaydilar, balki bilim olish jarayonidagi faolliklari tufayli olinayotgan bilimlarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga o'rganadilar. Shuningdek, ular turli adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatilganlilari uchun ham ularda mustaqil o'qish, izlanish ko'nikmalari shakllantiriladi.
6. Ta'lim oluvchilarga bilim olishga nisbatan kuchli motivatsiya hosil qilinadi.
7. O'rganilayotgan xorijiy tildan nutqiy muloqotda foydalanishga ehtiyoj yaratadi va ta'lim oluvchilarga muloqotni amalga oshirishga nisbatan istak-xohish hosil qiladi.
8. Ta'lim oluvchilarga o'z kuchlariga bo'lgan ishonch ortadi, ularga xato qilishdan qo'rqish, cho'chish kabi psixologik to'siqlarni yengib o'tish imkoni yaratiladi.
9. Darsdan tashqari paytda ham mustaqil o'qib o'rganishga va bildirilayotgan fikrlarga nisbatan tanqidiy fikrlarga nisbatan tanqidiy fikr bildirish, ularda o'z qarashlarini isbotlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Olmon til darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish olmon tili ta'limida, uning ommalashuvida o'zining samarasini berishi shubhasizdir. Chet tili darslari samaradorligini oshirishda darslik bilan metodik jihatdan tog'ri ishlay bilishning ham ahamiyati katta. Bu borada Peter Fummel, Bernard Kast va Gerhard Neuner "Arbeit mit Lehrwerklektionen" metodik qo'llanmada aytib o'tilgan fikrlari e'tiborga loyiqdir. Mualliflar qo'llanmasida

darsliklar bilan ishlash tajribalari, olmon tili o'qitilishidagi darsliklar tahliliga to'xtalib o'tganlar. Darsliklardagi o'quv materialining berilishi, mavzu va lug'at tarkibining o'zaro progressiyasi va grammatik, leksik progressiyalar mutanosibligiga to'xtalib o'tilgan. Qo'llanmada olmon tili darslarini tashkil qilish modeli- "Das Modell Didaktische Analyse" taklif qilingan. Didaktik analiz modeli olmon tili darslarini qadam baqadam tog'ri tashkil qilishiga yordam beradi. Unda taklif qilinayotgan mulohazalar darslikda berilgan o'quv materiallarni dars jarayonida samarali taqdimot texnologiyalariga oydinlik kiritish bilan birga, darsning har bir fazasida o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, o'qitish shakli, maqsadlarini belgilash masalalariga mantiqiy va metodik jihatdan tog'ri asoslab beradi. Olmon tili darslarini samarali tashkil etishda "didaktik tahlil" metodi ham asosiy o'rinni egallaydi.

Didaktik tahlil tushunchasi Germaniyada ta'limshunos va pedagog Wolfgang Klafki tomonidan ilgari surilgan. U didaktik tahlilning darsga tayyorgarlik ko'rishning asosi deya baholangan. Nemis tilini chet tili sifatida o'qitishning didaktik modeli Gerhard Vektgof tomonidan 1981-yili ishlab chiqilgan bo'lib, bu model O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida tashkil qilinayotgan olmon tili dars jarayoniga yaqinroq. Darsga tayyorgarlik ko'rishda bu modeldan foydalanish uchun quyidagi savollarga oydinlik kiritishga tog'ri keladi.

1. O'qituvchi darsda nima qilishi kerak?
2. Qanday o'qitish vositalaridan foydalanasiz?
3. O'quvchilar qanday ishlaydi, individualmi, juft bo'libmi yoki guruh bo'libmi?
4. O'quvchilar nima qilishlari kerak?
5. Qaysi o'quv materiali asosida ishlanadi?

Didaktik analiz modeliga ko'ra eng muhim savol. O'quvchi o'rganishi kerak savoli hisoblandi. Bu savolning birinchi o'ringa qo'yishdan maqsad shuki o'quvchi darsdan so'ng avval bilmaganini bila olishi, biror mavzu yoki muammoga nisbatan munosabat bildira olishi kerak. Bu esa o'qitishning maqsadi hisoblanadi. O'qituvchi interfaol metoddan foydalanar ekan qaysi

mavzuda qaysi metoddan foydalanishni tanlashi muhimdir. O'quvchi interfaol metodlardan foydalanganda avvalo "oddiydan murakkabiga tamoyiliga" amal qilgan holda foydalanmog'i lozim. Ushbu tamoyil asosan dars jarayonida qo'llanilayotgan metodlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: juft bo'lib ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan ishlash, masalan aqliy hujum, klaster usullarini qo'llaganda yaxshi samaraga erishish mumkin. **Murakkab metodlar qatoriga BBB, matnni tahlil qilish, esse, zigzag, intervyu, Ven diagrammasi, rezyume kabilarni kiritishimiz mumkin.** Bugungi kun xorijiy til darslilarida izohsiz rasmlar, matnlar, she'rlar va qo'shiqlar berilgan. Ba'zan o'qituvchining o'zi ham yuqorida qayd etilgan mavzularni o'qitishda qiynaladi, qaysi metod va usullarni qo'llashni bilmaydi. Masalan, dars jarayonida qo'llanadigan metodlar quyidagilar:

1. Darslikda qo'shiq matni berilgan.
2. Texnologiya BBB (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim).
3. Jadval doskaga chiziladi yoki tayyor jadval ilinadi va kartochkalar tarqaladi. Yuqoridagi ko'rsatilgan metod va usullar yordamida darsning sifatini oshirish mumkin. Bu esa o'qituvchi-muallimning zukkoligi, o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikda ishlay o'lish ko'nikmasiga bog'liq. Chet tilini yaxshi o'zlashtirishda nazariy bilimlar ko'prik vazifasini o'taydi. Bundan ko'rinib turibdiki, amaliy mashq juda muhim. Bu esa chet tilida so'z va iboralarni qanday tallafuz qilishga, tallafuzga doir bilimlarni qanchalik puxta o'zlashtirishga borib taqaladi.

Olmon tili o'qitilishida talaffuzga o'rgatishning ahamiyati katta. So'zlarda tovushlarning tog'ri talaffuzi, ularning ma'nolarini tog'ri tushunish muloqot jarayonini tog'ri tashkil qilinishida ham ahamiyatlidir. Unlilarning cho'ziq qisqaligiga e'tibor bermaslik oqibatida so'zning ma'nosi ham o'zgaradi. Olmon tili talaffuzini o'rgatishda olmon va o'zbek tilidagi tovushlarning asosiy xususiyatlari va ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarini ham bilish zarur. Chet tilidagi yangi tovushning taqdimoti taqlidiy va tahliliy ish turlarini talab etadi. Ular metodika ilmida talaffuz o'rgatishning imitasiya (taqlid) va analiz (tahlil)

metodlari bilan yuritiladi. Chet tilini o'z ona tili asosida o'rganish, ikki tili o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini qiyoslab, tahlil qilish yaxshi natija beradi. Shu sababli ta'lim tizimimizda maktabgacha ta'lim muassasalarida, boshlang'ich sinflarda talaffuzni samarali o'rgatish usullari, metodlari ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda nafaqat ingliz tili balki olmon tili o'qitish ham kengayib, ommalashib bormoqda. Barcha sinflarda olmon tili darslari ilg'or interfaol metodlar asosida, kommunikativ yo'nalishda o'qitilmoqda. Darslarda o'quvchilar to'rta muhim faoliyat (gapirish, o'qish, yozish va tinlab tushunish) orqali, o'qituvchilar tomonidan ularning o'rganuvchilar ehtiyojiga ko'ra integrallashtirilishi, shuningdek tildagi o'yinlar va harakatlar orqali olmon tilini puxta o'rganish malakalarini egallamoqdalar. Hozirda til o'rganuvchilarning qiziqishlari, faolligi va eng muhimi tilni o'zlashtirish va uni kerakli vaziyatda qo'llay bilish malaka va ko'nikmalarining shakllanish darajasi an'anaviy metodda o'qitish jarayoni natijalaridan tubdan farq qiladi, chunki yaratilgan zamonaviy o'qish va bilim olish sharoitlari o'zlarining ilm mevasini berdi. Maktablarda, akademik litsey, kollejlarda va oliy o'quv yurtlarida chet tillarini zamonaviy talablarga ko'ra maxsus jihozlangan yangi sinf va auditoriyalarda o'rganmoqdalar. Bu yerda o'quv jarayoni kompyuterlashtirilgan, o'quvchilar ehtiyojiga moslab yaratilgan yangi darsliklar, texnik vositalar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlangan, sinf va auditoriyalar ilg'or texnik vositalar (kompyuter majmualari, proyektorlar, interaktiv, elkektronik doskalar va boshq) bilan jihozlangan bo'lib, bularning barchasi olmon tilini zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda o'qitishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda chet tillarni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyojni qondirishga chet tili o'qitish markazlarining faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. Bunday o'quv markazlarida chet tillarni o'qitishni tashkil qilish alohida yondashuvni talab qiladi, zero til o'qitishdan va o'rganishdan asosiy o'quv jarayonini tashkil qilish shakllari va chet tili o'qitish mazmuni va usullarini tanlashga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham chet tili o'qitish markazlarida o'quv jarayonini tashkil qilishdan avval o'quv soatlari, dasturlari

va o'quv xonalarining darslarini tashkil qilishga jalb qilish masalalarini ham tahlil qilish kerak.

Chet til o'quv markazlarida til o'rgatish kommunikativlikka yo'naltirilgan holda tashkil qilinishi lozim, chunki til o'rganishdan asosiy maqsad uni nutqiy muloqot jarayonida qo'llashdir. Bu esa darslarni tashkil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, texnik vositalardan, kurs tinglovchilarining dars jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan didaktik o'yinlardan maqsadli foydalanishni talab etadi va til o'rganuvchilarda chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirib ulgurgan, hech kimdan hech bir sohadan kam bo'lmagan jonajon O'zbekistonimizda izlanayotgan, ijodkor har bir shaxsga katta imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, ilm sohiblarining qatori kundan kunga kengayib bormoqda. Ma'lumki, chet tilini o'rganish bilan birga o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning turmush tarzi, urf-odati, marosimlari, madaniyati, shuningdek mazkur xalqning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan va qo'shayotgan hissasi ham o'rganiladi va undan boshqa xalqlar manfaatdor bo'ladilar. Har bir chet tilini o'rganishning o'ziga yarasha qiyinchiligi bor, albatta. Ilk marta chet tilini o'rganish istagi paydo bo'lgan shaxs o'ziga kerakli qulay sharoitlarni yaratib olish zarur. Nafaqat chet tillarni, ayniqsa, ingliz va nemis tillarini o'rganishda uzviylik va uzluksizlik tamoyili amaliyotda keng qo'llanmoqda. Buning isboti sifatida bog'chadanoq bolalarga chet tilini o'rgatish tizimi yo'lga qo'yilganligini keltirish mumkin. Maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari chet tilida ma'lum faol so'zlarni, sanashlarni, kundalik hayotimizda ko'proq ishlatiladigan so'zlar, iboralar, salomlashish va o'zini tanishtirishda qo'llaniladigan sodda va lo'nda qurilmalarni qiziqib o'rganmoqdalar. Maktabgacha muassalarda tarbiyalanayotgan kichik yoshdagi bolalarga maxsus qo'llanmalar, rasmlar, kitoblar, kompyuterlashtirilgan metodik qo'llanmalar va boshqa o'quv-metodik materiallar nashrdan chiqarilmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy til o'qitish metodikasi rang-barang, samarali usullarga boy bo'lib, ular talabalarning mustaqil fikrlashi hamda amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi bilan birga faol ishtirok etishga to'la imkon beradi. Ilg'or pedagogik

texnologiya ta'lim jarayonida zamonaviy axborotni qo'llash bilan birga talabani mustaqil fikrlashga o'rgatishni talab etadi. Buning uchun, avvalo o'qituvchi bilan talaba munosabatlarini tog'ri tashkil etish lozim. Chunki mustaqil fikrlash individual jarayon bo'lib, unga o'rgatishda o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Jahonning ko'plab ilg'or mamlakatlarida vaqt sinovidan o'tgan yangi pedagogik texnologiyalar dars maqsadini amalga oshirishdagi samarasi yuqori ekanligi bilan ahamiyatlidir, chunki bunda bugun e'tibor o'quvchining faolligini oshirishga qaratiladi.

Bugungi kunda til o'qitishni kommunikativ usullarisiz tasavvur qilish qiyin, chunki har qanday tilni o'rganishdan kuzatiladigan yagona maqsad unda muloqot olib borishdir. Shu nuqtai nazardan olganda muloqot, so'zlashuvchilar tomonidan turli-tuman gaplar orqali amalga oshiriladi. Bunday holatlarda o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini notog'ri deb topmasligi lozim, aksincha, iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi, rag'batlantirishi, notog'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilish, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'zi tahlil qilib berishi lozim. Bunday samarali darslarni tashkil qilishda, olmon tili o'qitishda turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bulardan bir nechalarini misol keltirishimiz mumin:

“Zig-Zag” strategiyasi (metodi)

Metod o'quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi.

1. O'quvchilarda jamoa yoki guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi;
2. Mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt teжалadi.

“Zig-Zag” metodini qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi, ya'ni guruhlarda to'plangan ma'lumotlarni bir kishi taqdim qiladi.

“Birinchisi (oltinchisi, yettinchisi..) ortiqcha” metodi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berish uchun xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta, beshta va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilar o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish, shuningdek tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

“3/3” (4/4 5/5...) metodi.

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu yuzasidan uchta, to'rtta va unga teng nisbatda bo'lgan va noo'rin qo'llangan tushunchalardan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimda mavzuga ta'luqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarning mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo'llash quyidagi harakatlar orqali tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga oid va oid bo'lmagan tushunchalarni aniqlaydilar va dahldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarning mohiyatini izohlaydilar;

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

“Rasmlarni to`g`ri joylashtirish” metodi

Kichik guruhlarda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobiy natijalarini kafolatlaydi. Metodni qo`llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o`qituvchi tomonidan o`rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi;
- har bir guruhga kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarining ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;
- guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo`lgach, kartochkalarning orqa tomoni o`chiriladi va maxsus qoplama ochilib topshiriqning qay darajada to`g`ri bajarilganligi aniqlanadi. Agar topshiriq guruhlar tomonidan to`g`ri bajarilgan bo`lsa yakuniy jarayonida kartochkalar orqa tomoni o`chirilganida mavzuning mohiyatini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo`ladi. Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o`quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo`lib o`rganish va qismlar o`rtasidagi mantiqiy bog`liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko`nikmalari hosil qilinadi.

“Videotopishmoq” metodi

So`nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar yordamida ta`lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e`tibor qaratilmoqda, o`qituvchilar oldida ta`lim jarayonida turli axborot vositalaridan o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turubdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o`quvchilar e`tiboriga o`rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videoloyiha namoyish etadi;
- O`quvchilar har-bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini qayd etadilar. O`qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

“Zakovatli zukko” metodi

Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga ega ekanliklari muhim ahamiyatiga ega. "Zakovatli zukko" metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z hoxishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatda to'g'ri va aniq javob qaytara olishi kerak. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har-bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

"Yumaloqlangan qor o'yini" metodi

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi hamda o'quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

- tasvirli kartochkalar tayyorlanadi. Ularning orqa tomoniga mavzuni o'zlashtirishga oid o'n besh variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;
- sinf o'quvchilari ikki yoki uch guruhga bo'linib har-bir guruh a'zolari bir nechta juftliklarga birlashtiriladi;
- har-bir juftlik bir variantdagi topshiriqni bajaradi, jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqaradi.

"Yumaloqlangan qor o'yini" metodidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash yo'lida foydalanish nihoyatda qulay.

Hozirda jahonning barcha mamlakatlarida ommalashgan metodlardan biri bu "Keys- stadi" metodi hisoblanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozish mobaynida aynan, shu metod e'tiborimni tortdi. Ushbu metoddan olmon tili darslarida ham keng foydalanish mumkin.

”Keys-stadi” inglizcha **”case”** – aniq vaziyat, hodisa, **”study”** – o’rganmoq, tahlil qilmoq, ta’lim so’zlarining birikuvidan hosil qilingan bo’lib, ta’lim oluvchilarni o’rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo’naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan, aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Bu metod ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo’shimcha axborotlarni yig’ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo’yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Muayan hayotiy vaziyatlarga bag’ishlangan keyslardan foydalanish ta’lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog’laydi.

Keysni ko’rib chiqishda ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o’zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashinish holatlari kelib chiqadi. Keys ta’lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo’llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o’rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o’quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo’li sifatida qo’llanilsa, metod xarakteriga ega bo’ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatini o’zida aks ettiradi.

Ushbu metod dastlab 1920- yilda Garvard biznes maktabida qo’llanilgan. Garvard biznes maktabining o’quvchilari biznes yo’nalishidagi aspirantura bo’limi uchun tog’ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani yechish uchun biznes maktabining o’qituvchilari tomonidan qo’yilgan dastlabki qadam yetakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menedjerlarining faoliyati, unga ta’sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot bo’ldi. Ma’ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to’qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo’lib munozara tashkil etish asosida uning yechimi topish

tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo'nalishidagi ta'lim muassalarida keng targ'ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko'payib bormoqda.

XX asrning 50- yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ommalashdi. Yevropaning yetakchi biznes maktablari keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar. Keys- bu yaxlit axborot majmuidir. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar;
2. Aniq vaziyat bayoni;
3. Keys topshirig'i.

Keys-stadi metodi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- ✓ Keys topshirig'ini yozma ko'rinishda tayyorlanishi;
- ✓ O'quvchi-talabalarning keys topshirig'ini mustaqil o'rganishlari va muhokama etishni;
- ✓ O'qituvchi rahbarligida auditoriyada hamkorkilda keys-topshirig'ini muhokama etishni;
- ✓ "muhokama yechimdan ham muhim" tamoyiliga rioya etishni.

Keys-stadi metodini amalga oshirish bosqichlari:

- ✓ Keys bilan tanishuv (individual);
- ✓ Asosiy muamoni (o'quv muammosini) ajratib olish va o'rganish (individual va kichik guruhlarda);
- ✓ G'oyalar yig'ish va muammoning yechimini izlash (kichik guruhlarda);
- ✓ Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalarni taqdimoti, tahlil va baholash (o'qituvchi va kichik guruhlar);
- ✓ Keys yechimi va tavsiyalar (o'qituvchi, kichik guruhlar va individual).

Keys-stadining o'ziga xosliklari.

1. Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.
2. Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.
3. Individual, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.
4. Xilma-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish.

5. Muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish.

Keys-metodini amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining bosqichlari:

1. Tayyorgarlik bosqichi;
2. Asosiy bosqich: keys-satdi metodini amalga oshirish;
3. Tahliliy, baholovchi bosqich.

Keys bilan ishlash jarayonida o'qituvchining harakat startegiyasi mavjud:

1. O'qituvchi muammoni yechimini topishga yordam beruvchi kalit vazifasini bajaruvchi qo'shimcha savollarni yoki ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin;
2. Ayrim vaziyatda o'qituvchining o'zi javobni aniqlashtirishi mumkin;
3. Muammo ustida o'quvchilar ishlayotgan vaqtida o'qituvchi hech qanday yordam bermasligi mumkin.

O'qituvchi-talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchi-talabalarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich- keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich- keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatdan foydalanishning dolzarbligi: Keys-stadi ta'lim metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash- hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat. Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'lim sohasidagi dolzarb bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu

muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilmoqda.

Keys texnologiyasini loyihalashtirish

O'qituvchi harakatining izchilligi:

- Ischi dasturi asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg'ilot/ mustaqil ish/o'quv amaliyoti).
- O'quv mashg'uloti maqsadini oydinlashtiradi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.
- Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'lim metodlari, shakl va vositalari majmui) ni tanlaydi.

Keys tekshirilishi va baholanishi

Yaratilgan keys ekspert tekshiruvidan va bahosidan o'tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo'lishi mumkin:

1. Keys loyihasining korxona hodimi tomonidan ko'rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.
2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o'qituvchi-keysologning keysning ta'limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning ikkinchi usulidir.

Jamoa bo'lib keys ustida ishlash

1. Guruhlar taklif qilgan yechimlar variantlarining muhokamasi;
2. Taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi;

3. Taklif etilgan yechimlarning hayotiyligi va amlaga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (o'quvchi va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Keysning boshqa muammoli vaziyatlardan asosiy farqi shundaki, keysda muammo hayotiy va real bo'ladi, bunda muammoni muallimning o'zi o'ylab topadi. Mazmunga ko'ra keyslarni **ta'limiy, amaliy, tadqiqotga oid** turlarga ajratish mumkin. Keysni tahlil qilish uchun yordamchi axborotlar talabalarning analitik fikrlashlari uchun xizmat qiladi. Aniq vaziyatlarni sintez qilish, ularni bir-biri bilan taqqoslash esa talabalarni global fikrlashga undaydi. Keysning o'ziga xos xususiyati uning "Muhokama yechimdan ham muhim" tamoyiliga asoslanishidir. Aynan shu nuqtada talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga ahamiyat berilishi kerak bo'ladi. Keyslar o'z navbatida **vaziyatli, rolli o'yinlar, muzokaralar tahlili ko'rinishida va sahna ko'rinishida** bo'lishi mumkin. Keys bilan ishlash davomida talabalar kichik guruhlariga bo'linadi va keys quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

1. Keys bilan tanishtiriladi, maqsad o'rganiladi.
2. Muammolarga ajratiladi, muhokama qilinadi, tushunish zaruriyati topiladi.
3. G'oyalar yig'iladi, alternativ fikrlashga o'rgatiladi.
4. Taqdimotlar qilinadi.
5. Yechim va tavsiyalar beriladi.

Keys albatta natija bilan tugallanishi shart bo'ladi, zero innovatsion pedagogik texnologiyaning asosiy xususiyati ham uning kafolatli natijaga erishganligidadir. Keysni mashg'ulot turidan qat'iy nazar, fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, didaktik prinsip va qoidalarni hisobga olgan holda qo'llanadi va bu talabalarda psixologik to'siqni olib tashlashga xizmat qilishi muqarrardir.


Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Hozirgi zamon ta'lim

tizimida, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda turli xildagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib, ulkan natijlarga erishilmoqda.


Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar sirasiga hozirda bizning fan dunyomizda urf bo'lgan metod **"KLAUSTER"** metodini misol keltirishimiz mumkin. Bu metoddan nafaqat chet tili darslarida balki, umuman ta'lim jarayonida keng foydalanishimiz mumkin. Ushbu metod dars mavzusining talaba-yoshlar ongida chuqurroq muhrlanishi uchun katta xizmat qiladi. Klaster so'zi "tutam", "bog'lam"- axborot" degan ma'noni bildiradi. Klaster ya'ni, fikrlarni tarmoqlash- bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarning biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Klaster bog'lamlardan iborat. Klaster metodi bilimlarni faollashtirishga yo'naltiradi, fikrlovchi jarayonga mavzu bo'yicha yangi assosiativ tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi, o'quv mashg'ulotining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Bu metod fikrlarning tarmoqlanishi bilan ham bog'liq.

"Tarmoqlar metodi" (Klaster)- fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha va aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatni jaddallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klaster metodi orqali olmon tili dars mavzularini o'quvchi-talabalarga tez va oson yetkazish mumkin. Bu metodning afzallik tarafi shundaki, bu metoddan nafaqat chet til darslarida balki boshqa darslarda ham unumli foydalanish mumkin. Bunda Klaster bog'lamlari orqali o'tilayotgan mavzu mohiyati ochib beriladi. Masalan: Yangi o'rganishni boshlagan A1 darajadagi o'quvchilar uchun "Salomlashish" mavzusini olmon tili darslarida bu metod orqali



quyidagicha tushuntirish mumkin:



Bu usul va metodlar orqali o'qituvchi-muallim ta'lim samaradorligini oshiradi, dars qiziqarli, sifatli eng asosiysi esa mazmundor bo'ladi.

Ta'limning interaktiv metodlari:

- Darsda o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otishni ta'minlaydi;
- O'quv mareialini puxta o'zlashtirish imkoni beradi;
- O'quvchi, talabaning tahliliy fikrlashinirivojlantiradi;
- Barcha o'quvchi,talabalarni o'quv jarayoniga tortish faolligini oshirish uchun sharoit yaratadi;
- Guruhda ko'ngildagidek ijobiy psixologik iqlim, muhit yaratadi.

Hozirgi paytda ta'lim tizimimizni zamonaviy pedtexnologiyalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Ta'lim tizimimizning asosiy bog'ini bu "o'qituvchi-muallim" hisoblanadi. O'qituvchilik faoliyati ko'p qirrali, o'qituvchi kasbi esa o'ta mas'uliyatli kasbdir. Ta'limdagi samaradorlik esa ko'p jihatdan uning bilimi, kasbiy mahorati va ijobiy imidjiga bog'liq. Xo'sh, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun nima qilish kerak? O'qituvchi faoliyatining eng muhim qismi

dars bilan bog'liq. Eng avvalo, darsni shunday tashkil qilish kerakki, undan talabalar rohatlansinlar, vaqtning qanday o'tganini sezmay qolsinlar. Buning uchun esa, ular darsda faol bo'lishlari, ularda mavzuga nisbatan qiziqish, o'qib o'rganishga nisbatan istak-xohish bo'lishi kerak. Malakali o'qituvchi o'z fanini yaxshi bilishi, o'rganilayotgan mavzuni qiziqarli misollar yordamida tushuntirib, ko'rgazmali qurollarni o'z o'rnida, maqsadli foydalangan holda namoyish qila bilishi, shu bilan birga chet til o'qitish metodologik asoslaridan yaxshi xabardor bo'lishi, turli yoshdagi kishilarga chet tili o'rgatishni turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi lozim. O'qituvchining shaxsi, ijobiy imidji va kasbiy faoliyati bilan bog'liq yuqorida qayd etilgan sifatlardan tog'ri va maqsadga muvofiq foydalana olish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biri texnik vositalardan foydalanishdir. Bu esa, o'z navbatida, til o'rganishga nisbatan qiziqishni va o'tilayotgan darslarning sifatini oshiradi, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida usullar to'g'ri tanlansa, ko'zlangan natijaga qisqa yo'l bilan erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya sohasining to'xtovsiz takomillashib borishi, o'quv darslarini pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etish oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan bo'lib uni muvaffaqiyatli amalga oshirish oliy ta'lim professor—o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Hozirga kelib pedagogik amaliyotida shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'limiy maqsadlariga erishishni kafolatlash bunga keng imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday ishlarni amalga oshirish turli chet tillarni o'rgatishda ham samarali natijalarni berishi shubxasizdir.

Pedagogik jarayon sifatida ta'lim-tarbiya bir butun tizim deb ataladigan bo'lsa, uni tashkil etuvchi tarkibi quyidagilardir: Ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi- o'qituvchi va bilim oluvchi — o'quvchi va ularning o'zaro birgalikdagi faoliyati, ta'lim tamoyillari, ta'lim mazmuni, metod, shakli, vositalari, nazorat va baholash mexanizmlari.

Ta'lim berish jarayoni murakkab, ziddiyatli jarayon bo'lib, o'qituvchidan kuchli bilim, kasbiy mahorat, tashkilotchilik qobiliyati va tinimsiz izlanishni talab etadi. Har bir o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadiga erisha olishi uning kasbiy mahoratiga, samara beradigan ta'lim shaklini tanlay olishiga, ta'lim vositalaridan unumli foydalana bilishiga, eng muhimi, o'qitish usullarini o'rinli qo'llay olishiga bog'liqdir. O'qitish usullarini tog'ri qo'llay olinsagina, ta'lim samaradorligi kuchayadi. Kelajakdagi ko'zlangan maqsad sari shahdam qadamlar ham aynan shu ta'lim dargohidan boshlanadi.

III Bob bo'yicha xulosalar

Ta'lim tizimizga juda ko'p zamonaviy texnologiyalar kirib keldi. Ammo ularni qaysi paytda, qanday mavzuda foydalanish bu, o'qituvchining zukkoligi, izlanuvchanligiga borib taqaladi. Olmon tili darslarida zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ulardan foydalanish ham bundan mustasno emas. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan "KEYS STADI" va "KLASTER" metodlarining samarasi bu borada beqiyosdir. Aynan "KEYS STADI" metodi olmon tili darslaridagi muammoli mavzularda qo'llanilsa, mavzuning, muammoning yechimi tez va oson topiladi. Bu metod qo'llanganda o'quvchi-yoshlar mustaqil fikr yuritishga harakat qiladilar. Ushbu metodni global muammoga aylangan, "Umweltschutz", "Osonloch und seine negative Wirkung fuer das Leben der Menschheit" kabi mavzularda foydalanish mumkin. Bu metod orqali talabalarning dunyoqarashi, o'z fikrini isbotlay olish ko'nikmasi, bilim, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari "KLASTER" metodidan barcha mavzularni muhokama qilish jarayonida foydalanilsa darsning sifati yuqori bo'ladi.

XULOSA

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish kundankunga ortib bormoqda, bunday bo'lishiga sabablardan biri shu kungacha ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan

bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash esa ularni mustaqil fikrlashga kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi, ta'lim o'quvchi va talabalar manfaatiga yo'naltiriladi. Ta'lim sohasidagi tajribalar shundan dalolat beradiki, yangi pedagogik texnologiyalar, ularni o'z o'rnida qo'llash hozirgi zamon ta'lim jarayonini sifat bosqichiga olib chiqishda zarur bo'lgan metod deb tan olingandir. Rivojlangan mamlakatlarning tajribalari shuni isbotlaydiki, yangi pedagogik texnologiyalar o'rganuvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqish va zaruratni qondirish bilan birga, zamon talabiga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlab yetishtirish kabi vazifani uddalashda asosiy vositadir.

Darslarning samarali natija berishi o'qituvchining o'quvchilarni qay darajada qiziqitira olishiga va ularni bilim olishga intiltira olishiga bog'liq. Yangi pedagogik texnologiya dars jarayonida qancha ko'p qo'llansa, ta'limning sur'at va sifati yaxshilanadi va imkoniyatlar ochiladi. Hozirgi zamon imkoniyatlari juda yuqoridir. Aynan hozirgi davr chet tillarni o'rganish, samarali egallash davri hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida ham bugungi texnika rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni zamon talablariga mos, har tomonlama yetuk bilimli, zukko, qobiliyatli qilib tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi ko'rib o'tildi. Zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarini foydali tomonlari talabalarning bilim faoliyatini rivojlantirish bo'lib, talaba-yoshlarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi. O'quv jarayonini tashkil qilishda birinchi navbatda yuqorida aytib o'tilgan 10 ta ijtimoiy sifatdan har bir ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Xulosa qilib shuni aytish joizki, "yaxshi" yoki "yomon" metod yo'q "yaxshi" yoki "yomon" o'qituvchilar bor. Bundan ko'rinib turibdiki, dars jarayoning bosh bog'ini bu **PEDAGOG-MUALLIM** hisoblanadi. Shuning uchun ham pedagoglar zamonaviy pedagogik texnologiyarning nazariy asoslarini puxta egallashlari va ularni amalda mohirlik bilan qo'llay olishlari ko'zlangan natijaga erishishning zarur kafolari

hisoblanadi. Har bir mullim, metodist mas'uliyatni his etib, darsni tashkil qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.- Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 y
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent. "O'zbekiston" 2012 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent. "Sharq nashriyoti" 1998 y.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi \ Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr.
5. Karimov. I.A "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzuidagi konferensiya materiallari // Ma'rifat, 2012 yil 22 fevral.
6. Mirziyoyev SH.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent. "O'zbekiston" NMIY,2017.
7. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent. "O'zbekiston" NMIY,2017.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tog'risida" gi PQ-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y.
9. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017

yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

10. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi.- Toshkent. "O'qituvchi nashriyoti" 1996 y.

11. Saydaliev S. Chet tilo'rgatish metodikasidan ocherklar. -Namangan.- 2004.

12. Saydaliev S. Chet til o'rgatish metodikasidan ma'ruza matnlari. -Namangan 2002.

13. Gerhard Neuner und Hans Hunfeld Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts.- Berlin, Muenchen. Langenscheidt 1997

14. Gerhard Neuner und Hans Hunfeld Chet til o'rgatish metodlari.-Namangan 2005 (Nemischadan tarjima).

15. Yo'ldoshev J. Yangi dedagogik texnologiyalar yo'nalishlari muammolari.- Xalq ta'limi 1999 y.

16. Abdinazarov Sh. Ta'lim-tarbiyaning aktual masalalari.- Qarshi 1991 y.

17. Kleppin, K. Fehler und Fehlerkorrektur.-Berlin Munchen. Langenscheidt 2002.

18. Zaripova F.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma.- Toshkent 2002y.

19.Hoshimov O'.H, Yokubov I.YA. Ingliz tili o'qitish metodikasi.- Toshkent 2003y.

20. Рогова Г.Б., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. –М.: Просвещение, 2001.

21. Hoshimov O'.H, Yokubov I.YA. Ingliz tili o'qitish metodikasi.-Toshkent 2003y.

22. Qodirova F. R Pedagogik ta'lim.-Toshkent 2002, N2.

23. Yo'ldoshev J. Yangi dedagogik texnologiyalar yo'nalishlari muammolari.- Xalq ta'limi. 1999 y.

24. Chet tillarni o'qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- Toshkent2007.

25. Xorijiy tillarni o'rganish tarixi, bugun va istiqboli. Hududiy ilmiy-amaliy anjumanlari.-Andijon 2016.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>.
2. <http://www.pedagog.uz>.